

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17342106>

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA- TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI

Ismailov Temur Pulatovich

GGT MChJ kuzatuv kengashi raisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqani barqaror rivojlanirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanishning xorij tajribasi va ushbu tajribalarni mamlakazimizda qo'llash sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish tajribalari yuzasidan xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Mintaqqa, barqaror rivojlanirish, klaster, paxta-to'qimachilik klasterlari, salohiyat, tajriba.

I. KIRISH

Paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sish va barqarorlikning asosiy manbalaridan biridir. Paxta-to'qimachilik va tikuvchilik sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida harakatlantiruvchi kuch bo'lib, sanoatlashtirishga o'tishda asosiy rol o'ynaydi. Paxta strategik mahsulot hisoblanadi, chunki u yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sanoat tarmoqlarini ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Paxta, ko'plab mamlakatlarda asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'lib, uning to'qimachilik sanoati bilan integratsiyasi milliy va global iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlanirishda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoatning o'zaro integratsiyasiga asoslangan klasterlar salohiyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va integratsiyalashuv imkoniyatlari bilan, mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlashda alohida o'rinn tutadi. Ushbu holat mintaqaviy paxta-to'qimachilik klasterlarining barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi, ularning samarali foydalanish tajribasi va kelajak istiqbollarini umumlashtirishga qaratilgan. Natijada, mahalliy xomashyonini chuqur qayta ishslash, eksport ulushini oshirish, yosh avlod uchun amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish muhitini shakllantirish orqali ichki va tashqi bozor kon'yunkturasiga mos keladigan qo'shimcha qiymatga ega ishlab chiqarishni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladigan zamonaviy ish o'rinalarini qo'lga kiritadi va o'zaro tajriba almashish, ishlab chiqarishning har bir siklida zamonaviy yuqori samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ildiz yangilanishlari xos bo'ladi [1]. Klasterga qo'shilgan ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari birlashadi, uzluksiz ta'lim doirasida ma'naviy sog'lom,

chuqur bilimga ega inson shakllanadi va innovatsiyalar uchun asoslar yaratiladi.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Paxtachilikda bozor tamoyillari joriy etilishi munosabati bilan paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va qayta ishlovchi korxonalarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi [2]. Paxta xomashyosining xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechildi. Ya’ni, uning o‘rniga klasterlar shakllandı. Klasterlar, paxta yetishtirishdan to‘qimachilik va tayyor mahsulotlarni eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi [3]. Bu borada quyidagi mamlakat tajribalarini tahlil qilib chiqdik:

- AQSh tajribasi. Barqaror mintaqaviy rivojlanish bugungi kunda global ahamiyatga ega bo‘lib, uning markazida sanoat klasterlari, xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim o‘rin tutadi. AQSh, dunyodagi eng yirik paxta ishlab chiqaruvchilari va to‘qimachilik sanoatining rivojlangan mamlakatlaridan biri sifatida paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan mintaqaviy rivojlanish uchun samarali foydalanish bo‘yicha boy tajribaga ega. Ushbu xulosa AQShning ushbu sohadagi tajribasini umumlashtirib, uning asosiy jihatlari va O‘zbekiston kabi mamlakatlar uchun saboqlarni ta’kidlaydi. AQSh tajribasining asosiy jihathari quyidagilar bilan namoyon bo‘ladi:

- integratsiyalashgan klaster modeli: AQShda paxta-to‘qimachilik klasterlari odatda chorvachilikdan tortib, paxta yetishtirish, to‘qimachilik ishlab chiqarish, kiyim-kechak tikish va chakana savdrogacha bo‘lgan qiymat zanjirining barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu integratsiya har bir bosqichda samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahalliy iqtisodiyotga qo‘srimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Shtatlar (Shimoliy Karolina, Jorjiya va Texas) paxta yetishtirish, ip-kalava ishlab chiqarish, mato to‘qish va kiyim-kechak sanoatini o‘zida mujassam etgan yirik klasterlarga ega.

- texnologik innovatsiyalar va tadqiqotlar: AQSh paxta-to‘qimachilik sohasida doimo yangi texnologiyalarni joriy etishga intiladi. Bu paxta navlarini yaxshilash (suvga chidamli va yuqori hosilli navlar), zamonaviy sug‘orish tizimlari, paxtani mexanizatsiyalashgan terimi, hamda to‘qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarishdagi avtomatlashtirish va robotlashtirishni o‘z ichiga oladi. Universitetlar, tadqiqot markazlari va sanoat korxonalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlik R&D tizimiga katta turki beradi. Yangi to‘qimachilik materiallari va texnologiyalari doimo ishlab chiqiladi.

- barqarorlik va ekologik to‘g‘ri yondashuv: AQShda barqarorlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlar suv resurslarini tejash, kimyoviy moddalaridan foydalanishni kamaytirish, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish va uglerod izini kamaytirishga intilmoqda. “Yashil” to‘qimachilik ishlab chiqarish standartlari joriy etilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, organik paxta yetishtirish, suvni qayta aylantirish tizimlari va ekologik sertifikatsiyalarga asoslanadi.

- mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va “yashil” sertifikatsiya: Davlat va mintaqaviy darajada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud. “Made in USA” kabi brendlар, shuningdek, ekologik va

ijtimoiy mas’uliyatni tasdiqlovchi sertifikatsiyalar iste’molchilar ishonchini qozonishda muhim rol o‘ynaydi. Mintaqaviy soliq imtiyozlari, kreditlar, logistikani optimallashtirish va tadqiqotlarni moliyalashtirish shularga kiradi.

- mintaqaviy hamkorlik va jamoatchilik jalb etilishi: Klasterlar doirasida turli sub’ektlar (fermerlar, ishlab chiqaruvchilar, tadqiqotchilar, hukumat va jamoatchilik) o‘rtasida hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikr almashinuvi, muammolarni birgalikda hal etish va yangi imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. Sanoat assotsiatsiyalari, ishbilarmonlik kengashlari, hududiy rivojlanish agentliklari va ta’lim muassasalari faol ishtirot etadi.

- Xitoy tajribasi. Xitoyning mahalliy mexanizatsiyalashgan paxta to‘qimachilik sanoati urushlararo davrda gullab-yashnadi va ishlab chiqarish sohasida etakchi sanoatga aylandi, garchi u Yaponiya tomonidan moliyalashtiriladigan firmalarga qarshi ichki yetakchilikni qo‘lga krita olmadi. Zamonaviy sharoitda paxta to‘qimachilik sanoatining tarixiy kontekstida ham firma o‘sishida tashqi moliyaning roli haqida munozaralar mavjud. Adabiyotda kapital va sanoat o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha “modernizatsiya” va “samaradorlik” argumenti kabi raqobatbardosh farazlar taklif etiladi. Kapitalning daromadliligi va kapital hajmi o‘rtasidagi firma darajasidagi ma’lumotlardan foydalangan holda empirik natijalar tashqi moliyaning firma o‘sishiga aniq ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bu “modernizatsiya” gipotezasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Xitoya yigiruv ishlab chiqaruvchilarning yapon fabrikalariga nisbatan o‘rtacha ishlashining sabablari noto‘g‘ri boshqaruvi, kapitalizatsiya, qayta investitsiyalarni rag‘batlantirmaslik va past mehnat unumдорligi va boshqalar bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [4]. Shunday ekan, mamlakatning paxta-to‘qimachilik sanoati klasterlari mintaqani barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu klasterlar paxta yetishtirish, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishgacha bo‘lgan to‘liq sanoat zanjirini birlashtiradi. Ushbu tizim mintaqaviy iqtisodiyotni jonlantirish, ish o‘rinlari yaratish va mahalliy aholi daromadlarini oshirishga imkon beradi. Klaster yondashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan optimal foydalanishni ta’minlaydi va eksport salohiyatini kuchaytiradi.

- Koreya tajribasi. Mamlakatda sanoat klasterlari adabiyoti kichik firmalarning aglomeratsiya yutuqlari va jamoaviy harakatlar orqali global miqyosda raqobatbardosh bo‘lish potentsialiga oid zamonaviy fikrlashni shakllantirdi. Biroq, klasterlar ko‘pincha salbiy ekologik tashqi ta’sirlarni keltirib chiqaradi. Sanoat ekologiyasi asosi ishlab chiqaruvchilar aglomeratsiyalari atrof-muhitning iqtisodiy ta’sirini kamaytiradigan yopiq ishlab chiqarish tartiblarini yaratishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bugungi kunga qadar sanoat klasteri va sanoat ekologiyasi yondashuvlari o‘rtasida kam aloqa mavjud. Unda Janubiy Koreyada ekologik kollektiv samaradorlikka klasterga asoslangan kollektiv harakatlar orqali erishish mumkin [5]. Bu yopiq ishlab chiqarish va klaster miqyosida iqtisodiy va ekologik yutuqlarga olib keladi. Bunga erishish uchun mahalliy ijtimoiy integratsiya, klasterga asoslangan institutlar va muvofiqlashtiruvchi vakolatlar alohida o‘rin tutadi.

Janubiy Koreya to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirgan. Avvalo, xomashyoni qayta ishlashdan boshlab tayyor mahsulot ishlab

chiqarishgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlar yagona tizimga birlashtiriladi. Hukumat ushbu yo‘nalishda klasterlar asosida infratuzilma yaratish, texnologik yangilanishlar, ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasi va kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratgan. Yirik to‘qimachilik klasterlari Seul, Pusan va Daegu kabi sanoat markazlarida shakllantirilib, ularning har biri o‘ziga xos ixtisoslashuvga ega bo‘lgan. Masalan, Daegu shahri "to‘qimachilik poytaxti" sifatida tanilgan. Bu yerda texnik to‘qimachilik, dizayn markazlari va ilmiy-tadqiqot institatlari faoliyat yuritadi. Bu esa innovatsion yondashuvni rag‘batlantiradi va sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi.

III. METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo‘llaniladigan turli usullardan foydalanildi. Xususan, ushbu tadqiqotda mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanishning xorij tajribasini yoritish yuzasidan kuzatish, mantiqiy fikrlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

IV. TAHLIL VA NATIJALAR

AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, paxta-to‘qimachilik klasterlari nafaqat iqtisodiy o‘sishning kuchli vositasi, balki mintaqani barqaror rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. Integratsiyalashgan qiymat zanjiri, texnologik yangiliklarga urg‘u berish, barqarorlik va ekologik to‘g‘ri yondashuv, hamda barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki muvaffaqiyatning kalitidir.

O‘zbekiston kabi paxta-to‘qimachilik an‘analariga ega mamlakatlar uchun AQSh tajribasidan quyidagi saboqlarni olish mumkin:

- qiymat zanjirini to‘liq integratsiyalash: Paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotgacha bo‘lgan jarayonlarni bir joyga jamlash.
- R&D va innovatsiyalarga investitsiya kiritish: Paxta navlarini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.
- barqarorlik va ekologik standartlarni joriy etish: Suvni tejash, organik paxtachilik, “yashil” ishlab chiqarish.
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash: Soliq imtiyozlari, kreditlar va marketing yordami.
- barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash: Davlat, biznes, ilmiy-tadqiqot institatlari va jamoatchilik o‘rtasida.

Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan tizimli ishlar paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan to‘liq foydalanish hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shish imkonini beradi.

Xitoy tajribasining yana bir asosiy jihat texnologik innovatsiyalar va avtomatlashtirishni keng joriy etishiga asoslanadi. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilash bilan birgalikda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, klasterlarda barqaror ekologik amaliyotlarga alohida e’tibor beriladi. Ya’ni, suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, agroekologik usullarni qo‘llash orqali tabiiy resurslar samarali boshqariladi va atrof-muhit muhofazasi ta’minlanadi.

Bu esa mintaqaviy ekologik barqarorlikni saqlashga imkon beradi.

Xitoy hukumati tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va siyosiy qo'llab-quvvatlash klasterlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga katta turtki bo'ladi. Soliq imtiyozlari, infratuzilma yaratish, tadqiqot va rivojlanishga yo'naltirilgan grantlar orqali sanoat rivojlanishi barqaror asosda olib boriladi. Bu esa uzoq muddatda mintaqaviy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va o'sishini ta'minlaydi. Natijada, Xitoy paxta-to'qimachilik klasterlari modeli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga mos keladigan samarali tizim sifatida ajralib turadi. Bu tajriba paxta-to'qimachilik sanoati rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar uchun ham o'rnak bo'lib, ularning mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda qimmatli qo'llanma vazifasini o'taydi.

Koreya modelida quyidagi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik muhim o'rin tutadi:

- **ekologik barqarorlik:** ishlab chiqarishda energiyani tejovchi texnologiyalar joriy etilgan va chiqindilarni qayta ishslash keng yo'lga qo'yilgan;

- **ijtimoiy barqarorlik:** ayollar va yoshlar uchun maxsus ish o'rnlari yaratilgan va kasbiy qayta tayyorlash kurslari orqali aholining bandligi ta'minlangan;

- **iqtisodiy barqarorlik:** klasterlar eksportga yo'naltirilgan hamda davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy va huquqiy mexanizmlar yaratilgan.

Mamlakatimiz paxta-to'qimachilik sohasida yetarli xomashyo bazasiga ega bo'lib, klasterlashuv orqali mahsulotga qo'shilgan qiymatni oshirish imkoniyatiga ega. Janubiy Koreya tajribasini inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- **hududiy ixtisoslashgan klasterlar yaratish:** har bir viloyat o'zining tabiiy-iqlimi sharoiti va mavjud resurslaridan kelib chiqib, to'qimachilikning yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lishi lozim.

- **ilmiy-tadqiqot va innovatsiyani klasterga integratsiya qilish:** texnoparklar, kasb-hunar markazlari va ilmiy institutlar bilan yaqin hamkorlikda ishslash orqali mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish.

- **davlat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlash:** soliqqa tortishda imtiyozlar, eksport subsidiyalari va yengil kreditlar orqali klasterlar faoliyatini rag'batlantirish.

Janubiy Koreya tajribasi ko'rsatadiki, sanoat klasterlari iqtisodiy taraqqiyot va hududiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. O'zbekiston ham ushbu model asosida o'z paxta-to'qimachilik klasterlarini yanada takomillashtirishi mumkin. Buning uchun davlat, biznes va ilm-fan o'rtaida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda klasterlashuvni chuqurlashtirish va ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratish zarur. Aynan shundagina klasterlar mintaqaning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallaydi.

Shuningdek, bu borada Yevropa Ittifoqi to'qimachilik sanoatida yuqori texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetakchi hisoblanadi.

- **tajriba:** Ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan, sensorlar yordamida sifat nazorati amalga oshiriladi va

ma'lumotlar tahlili (Big Data) orqali ishlab chiqarish optimallashtiriladi.

- o'rganiladigan jihatlar: "Aqli fabrikalar" qurish tajribasi, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan energiyatejamkor uskunalarni joriy etish, robototexnika va avtomatlashtirishni qo'llash usullari.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanishning AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasini quyidagi jadvalda umumlashtiramiz (1-jadval).

1-jadval

Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanishning AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi²

Mezonlar	AQSh	Xitoy	Janubiy Koreya
Paxta-to'qimachilik sanoati rivojlanishi	Keng sanoat infratuzilmasi, ilg'or texnologiyalar	Katta hajmdagi ishlab chiqarish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Innovatsion va yuqori sifatli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
Klaster shakllantirish yondashuvi	Hududiy sanoat klasterlari (Texas va Kalifornia)	Maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat parklarida klasterlar	Kichik va o'rta korxonalar klasterlari hamda innovatsion bog'lanishlar
Davlat roli	Soliq imtiyozlari va investitsiya dasturlari	Strategik davlat dasturlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Innovatsion loyihalar uchun grantlar va eksportni rag'batlantirish
Texnologiyalar va innovatsiyalar	Zamonaviy avtomatlashtirish va ilmiy tadqiqotlar	Tezkor texnologik yangilanish va raqamli ishlab chiqarish	Yangi materiallar va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalari
Eksport va xalqaro hamkorlik	Keng xalqaro bozorlar va yuqori sifat standartlari	Global eksport tarmoqlari va markazlashtirilgan boshqaruv	Asosiy eksport yo'nalishlari bo'lib Yevropa va Shimoliy Amerika sanaladi
Barqaror rivojlantirish tamoyillari	Atrof-muhitni muhofaza qilish va energiya tejamkorligi	Resurslarni samarali boshqarish va chiqindilarni kamaytirish	Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat asosida ishlab chiqarish
Marketing va brendlash	Mahsulot sifatini ta'kidlovchi marketing	Milliy brendlari va xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok	Innovatsion va ekologik toza mahsulotlar brendlari

Ushbu keltirilgan 1-jadvalga asosan, AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya paxta-

² Muallif ishlanmasi.

to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan foydalanishda hududiy hamkorlik va klasterlarni tashkil etish, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan moliyaviy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash, barqaror rivojlantirish tamoyillarini amalga oshirish va global bozorga yo‘naltirilgan eksport siyosati asosiy o‘rin tutadi. Mazkur tajribalar O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun mintaqaviy sanoatni barqaror rivojlantirishda samarali yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mintaqaviy paxta-to‘qimachilik klasterlarining salohiyatidan samarali foydalanish vertikal integratsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, barqarorlik tamoyillariga rioya qilish, kuchli dizayn va brendlash strategiyalari hamda global bozorlarga chiqishga qaratilgan aniq yondashuvlarni talab qiladi. Mintaqamizning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda, bu tajribalarni moslashtirish va qo‘llash orqali paxta-to‘qimachilik sanoatini barqaror rivojlantirish mumkin.

Ana shularga asosan, paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning kelajagi malakali mutaxassislarga bog‘liq. Buning uchun o‘quv dasturlarini yangilash (kasbhunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy texnologiyalar va dizayn asoslari bo‘yicha ta’lim standartlarini kiritish) hamda amaliyotni kuchaytirish (talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida muntazam amaliyot o‘tishi va talabalar ishtirokida ilmiy loyihalarni amalga oshirish) lozim. Shunday ekan, paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish hozirgi kunda faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki integratsiya, innovatsiya, barqarorlik va brendlash orqali sifatli o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Demak, paxta-to‘qimachilik sanoati global miqyosda katta o‘zgarishlar davrida turibdi. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish, qiymat zanjirini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta’minalash uchun **xorijiy ilg’or tajribalarni o‘rganish** strategik ahamiyatga ega. Xorijiy tajribalarni o‘rganish paxta-to‘qimachilik sanoatini oddiy xomashyo yetkazib beruvchi sifatida emas, balki **yuqori qo’shimcha qiymatli, texnologik jihatdan rivojlangan va ekologik barqaror soha sifatida rivojlantirish uchun zaruriy poydevordir**. Ushbu tajribalarni mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish orqali, sanoatimizni global bozorlarda yanada raqobatbardosh qilish mumkin.

V. XULOSA

Paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish mintaqaviy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyodagi yetakchi sanoatlashgan davlatlar bu sohada turli klaster modellarini amaliyotga joriy etgan bo‘lib, ular nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlab qolmasdan, ya’ni hududiy rivojlanish, aholi bandligi va ekologik barqarorlikni ham yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu borada AQSh, Xitoy va Janubiy Koreya tajribalariga ko‘ra, paxta-to‘qimachilik klasterlari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta’minalashda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi. Ularning muvaffaqiyati yagona boshqaruv va rejallashtirish tizimi mavjudligi, hududiy ixtisoslashuv va

resurslardan oqilona foydalanish, innovatsiyalarni faol joriy qilish, kichik va o'rta biznesni jalb etish va infratuzilma va eksportga yo'naltirilganlik kabilarga asoslanadi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalar asosida milliy modelni ishlab chiqish, mavjud klasterlarni modernizatsiya qilish va ularni mintaqaviy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy paxta-to'qimachilik klasterlari barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni ta'minlash uchun katta salohiyatga ega. Ushbu salohiyatdan samarali foydalanishning asosiy sharti – bu klaster a'zolari o'rtasida mustahkam hamkorlik, doimiy texnologik yangilanish, innovatsion bozorga chiqish strategiyalari va davlatning maqsadli ko'magidir. Kelajakda "yashil" texnologiyalar, dizayn va brendlashga e'tibor qaratish, shuningdek, qo'shimcha qiymatlari mahsulotlarni ko'paytirish orqali paxta-to'qimachilik klasterlari mintaqaviy barqarorlikni yanada mustahkamlovchi muhim omilga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://article.sapub.org/10.5923.j.ijaf.20180803.02.html>
2. Xalimbetov F.B. Paxtachilik klasteri - qishloq xo'jaligida yangi imkoniyat va samaradorlik omili. // Academic Research in Educational Sciences, Volume3, Issue12, 2022. - 295 b.
3. Sherkulov Sh.E. Paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy rivojlanishdagi ro'li va ta'siri. // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogic texnologiyalar ilmiy-elektron jurnal, I son – iyul-avgust. - 154-158 b.
4. Baomin Dong, Kaixiang Peng, Jianguo Sun. Financing China's cotton textile industry: 1890–1936. // Journal of Asian Economics, Volume 79, April 2022, 101453.
5. Sukjin Yoon, Khalid Nadvi. Industrial clusters and industrial ecology: Building 'eco-collective efficiency' in a South Korean cluster. // Geoforum, Volume 90, March 2018, Pages 159-173.